



ARTICLE INFO

Received: 21th December 2022

Accepted: 29th December 2022

Online: 31th December 2022

KEY WORDS

Fuqarolik, O'zbekiston respublikasi fuqarosi, fuqarolik olish tartibi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining butun hududi uchun yagona fuqarolik o'rnatiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni bir vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, u

O'ZBEKISTON FUQAROLIGINI OLISH

Aliyarov Sherzod Muratovich

Surxondaryo viloyati, IIB M va FRB MTB inspektori,
kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7498197>

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1991-yildan 2007-yilgacha 482 kishi O'zbekiston fuqaroligini olgan. So'ngra, 2016-yilga qadar hech kimga O'zbekiston fuqaroligi berilmagan. 2016 yildan hozirgi kunga qadar 23 238 nafar shaxslarga O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilinib, O'zbekiston pasportini olgan. Bugungi kunda O'zbekistonda fuqaroligi bo'lmagan 33 075 kishi istiqomat qiladi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasida yashaydigan shunday shaxslar umumiy sonining 78,5 foizi deganidir. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida qonuni, fuqarolikni olish tartibi va fuqarolik olish tartibidagi o'zgarishlar haqida so'z boradi.

qanday asoslarda olinganligidan qat'i nazar, hamma uchun tengdir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir. O'zbekiston Respublikasida har bir inson fuqaro bo'lish huquqiga egadir. Hech kim O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum qilinishi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi o'z organlari va mansabdor shaxslari orqali O'zbekiston Respublikasi fuqarolari oldida



masʼuldir, Oʻzbekiston Respublikasining fuqarosi esa davlat oldida masʼuldir. Oʻzbekiston Respublikasi oʻz fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Oʻzbekiston Respublikasi hududida hamda uning hududidan tashqarida amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

2020-yil 13-mart kuni Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligi toʻgʻrisidaʼgi 610-sonli qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan 1995-yil 1-yanvar kuniga qadar Oʻzbekiston Respublikasi hududidga koʻchib kelib, doimiy roʻyxatdan oʻtgan va uzluksiz yashab kelayotgan fuqaroligi boʻlmagan shaxslar istak bildirsa, Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkinligi qayd qilingan boʻlsa, 2021-yil 14-iyun kuni Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligi toʻgʻrisidaʼgi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga qoʻshimcha va oʻzgartirish kiritilganidan soʻng, 2005-yil 1-yanvar kuniga qadar Oʻzbekiston Respublikasi hududiga doimiy yashash uchun koʻchib kelib, doimiy roʻyxatdan oʻtganlar hamda 15 yil davomida respublika hududida doimiy roʻyxatdan oʻtib yashab kelayotgan fuqaroligi boʻlmagan shaxslarga Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini berish tartibi yaʼni Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini tan olish instituti joriy qilindi.

“Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Qonuniga muvofiq, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli himoya qilish, fuqarolik masalalarini koʻrib chiqishda ilgʻor axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini

keng joriy etish, vatandoshlarimizni mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni qoʻllab-quvvatlash jarayoniga faol jalb etish uchun qoʻshimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil, 10-martdagi PF-6185-sonli Farmoni tasdiqlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini olish uchun iltimosnoma bilan quyidagi hujjatlar qabul qilinadi:

- yashash guvohnomasi yoki fuqaroligi boʻlmagan shaxsning identifikatsiyalovchi kartasi;
- nikoh tuzilganligi yoki nikoh bekor qilinganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma (mavjud boʻlsa);
- iltimosnomada ariza beruvchi bolasini koʻrsatib oʻtgan taqdirda, bolaning tugʻilganlik toʻgʻrisidagi guvohnomasi va yashash guvohnomasi (mavjud boʻlsa), bunda oʻn toʻrt yoshdan oʻn sakkiz yoshgacha boʻlgan bolaning notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinadi;
- tirikchilikning qonuniy manbalari mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (jismoniy shaxsning daromadi haqidagi maʼlumotnoma, soliq inspeksiyasidan berilgan jismoniy shaxsning daromadi boʻyicha soliq deklaratsiyasi, ish joyidan oylik ish haqi koʻrsatilgan maʼlumotnoma, pensiya tayinlanganligi haqida maʼlumotnoma, aliment toʻlanishi haqida maʼlumotnoma, kredit tashkilotiga qoʻyilgan mablagʻi mavjudligi haqidagi hisobvaragʻi koʻrsatilgan holda berilgan maʼlumotnoma, ariza beruvchi kimning qaramogʻida boʻlsa, shu shaxsning daromadlari haqida maʼlumotnoma, shuningdek, boshqa qonuniy daromadlarini tasdiqlovchi hujjat);
- xorijiy fuqarolikdan chiqqanlik toʻgʻrisida guvohlik beruvchi hujjat



(fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan tashqari);

Davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilishini tasdiqlovchi hujjat vakolatli organ tomonidan idoralararo ma'lumot almashinuvi tizimi orqali olinadi. Iltimosnomani qabul qilgan mas'ul xodim uch ish kuni ichida ilova qilingan hujjatlarning to'liqligini va to'g'ri rasmiylashtirilganligini o'rganib chiqadi hamda so'rovnomaga o'zining lavozimini ko'rsatgan holda imzo qo'yadi.

So'rovnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar uch ish kuni ichida «E-Fuqaro» IMBga kiritiladi, materiallar esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalariga yuboriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari mas'ul xodimi o'n ish kuni ichida ma'lumotlar «E-Fuqaro» IMBga to'g'ri kiritilganligini tekshiradi, shaxsga nisbatan tekshiruv talabnomasini shakllantirib, manfaatdor vazirlik va idoralarga yuboradi.

Materiallar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga yuboriladi.

Manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan kelib tushgan tekshiruv talabnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini qabul qilishga to'sqinlik qiluvchi materiallarning mavjudligi yoki yo'qligi bir oy muddatda ko'rib chiqilib, «E-Fuqaro» IMBga ma'lumot kiritilishi orqali munosabat bildiriladi.

«E-Fuqaro» IMBda tekshiruvdan o'tib, yakunlangan talabnomaga muvofiq tekshiruv varaqasi Ichki ishlar vazirligining mas'ul xodim tomonidan chop etiladi.

Materiallar va tekshiruv varaqasi asosida bir oylik muddatda xulosa tayyorlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri yoki uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan tasdiqlanadi.

Xulosada ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan va amalga oshirilgan tekshiruv yakuni bo'yicha (tekshiruv varaqasidagi ma'lumotlar asosida) uning o'zi hamda yaqin qarindoshlari haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi

NATIJALAR

«O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririda:

☑ yashash guvohnomasi, ☑ tekshiruv varag'i, ☑ xorijiy davlat fuqarosi☑ va boshqa atamalar kiritilmoqda;

☑ fuqarolikning asosiy prinsiplari mustahkamlab qo'yiladi: yagona fuqarolik, teng huquqlilik, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sonini qisqartirish, ochiq-oshkoralik;

☑ fuqarolikka qabul qilish turlari qayd etilgan: umumiy, qisqartirilgan va istisno tariqasida;

☑ Prezident huzuridagi Fuqarolik masalalari bo'yicha komissiyaning maqomi, vazifalari va vakolatlari belgilangan;

☑ 1995-yil, 1-yanvargacha O'zbekiston hududiga kelgan va doimiy propiska qilingan, xorijiy fuqarolikni qabul qilmagan va qonun kuchga kirguniga qadar fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladigan yashash guvohnomasi asosida yashab kelayotgan shaxslar respublika fuqarolari deb e'tirof etiladi (bunday shaxslar soni 49 228 kishini tashkil etadi);

☑ tug'ilgan joyi va ota-onasining fuqaroligidan kelib chiqqan holda xorijiy davlat fuqarolari hisoblangan bolalarga O'zbekiston fuqaroligini berish tartibi belgilandi;



fuqarolikni yo'qotishga sabab bo'ladigan konsullikda hisobga turmaslik muddati 3 yildan 7 yilgacha etib o'zgartirildi; fuqarolikni qabul qilish masalalari bo'yicha ishlarni to'xtatib turish, tugatish uchun aniq asoslar belgilab berildi; har bir vakolatli organda materiallarni ko'rib chiqish muddati bir oydan oshmasligi, umumiy muddat esa fuqarolik masalalariga oid materiallar kiritilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak; davlat tilini muloqot qila oladigan darajada bilish fuqarolikni olish shartlaridan biri sifatida qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:

1. tug'ilganlik bo'yicha;
2. bola farzandlikka olinganda;
3. O'zbekiston

Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va uni tiklash natijasida;

4. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham olinishi mumkin.

Respublikaning fuqaroligini belgilangan tartibda olgan shaxsga quyidagi hujjatlar beriladi:

- ichki ishlar organi tomonidan - O'zbekiston fuqarosining identifikatsiyalovchi kartasi yoki respublikaning fuqaroligi mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- konsullik muassasasi tomonidan - O'zbekiston fuqarosining xorijga chiqish uchun biometrik pasporti yoki respublikaning fuqaroligi mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjat.
- 2005-yil 1 yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga

olingan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

- O'zini O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasida kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.
- Ota-onasidan biri (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olingan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan va O'zbekiston Respublikasida yashab kelayotgan bola xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.
- Nazarda tutilgan faktlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, ariza beruvchi ushbu faktlarni sud tartibida aniqlashi mumkin.

XULOSA

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi:

- 1992-yil 28-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida doimiy yashagan, chet davlat fuqarosi bo'lmagan va O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxs;
- O'zbekiston hududida yashagan va 1992-yil 28-iyulga qadar o'qish uchun O'zbekistondan tashqariga chiqib ketgan hamda uzluksiz ravishda ta'lim olgan yoxud harbiy xizmatni o'tagan va o'qish yoki harbiy xizmat tugaganidan keyin 1 yil ichida O'zbekistonga qaytib kelgan hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy ro'yxatdan o'tgan shaxs, basharti uning chet davlat fuqaroligi mavjud bo'lmasa;



- Qonun kuchga kirgan kunda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs;
- Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxs. Alohida hollarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi oldida juda katta xizmatlari bo'lgan yoki fan, texnika va madaniyat sohasida yuksak yutuqlarga erishgan, shuningdek respublika uchun qiziqarli kasb va malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslar "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"ning O'zbekiston Respublikasi Qonuni 19-moddasining 1, 2 va 3-bandlarida bayon etilgan talablar hisobga olinmay, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilinishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi oldidagi juda katta xizmatlar deyilganda quyidagilarni: O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining Oliy organlari bergan ordenlar, medallar, faxriy unvonlar, hukumat faxriy yorliqlari va ularga teng keladigan rag'batlantiruvchi hujjatlarning borligini tushunish lozim. Fan, texnika va madaniyat sohasidagi yuksak natijalarga erishganlik deyilganda shaxs milliy, xalqaro mukofotlarga, rag'batlantirishning boshqa turlariga yoki o'z ixtisosi bo'yicha xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishga, o'z tarmog'i bo'yicha xalqaro tadbirlarda jyuri a'zosi sifatida ishtirok etishga erishganligini, turli xalqaro tashkilotlarda haqiqiy va faxriy unvonlari borligini tushunish zarur.

References:

1. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik portali);
2. <http://www.dslib.net>;
3. <http://www.dissforal.com>;
4. <http://www.samdu.uz>;
5. <http://www.library.ziyonet.uz>;
6. <http://www.elibrary.ru>;
7. <http://www.ScienceDirect.com>;
8. <http://www.GoogleScholar.com>
9. <https://www.ResearchGate.com>.
10. <http://www.avtoreferat.uz>